



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 1

2026

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINI FUNKSIONAL SAVODXONLIK ASOSIDA PROFESSIONAL RIVOJLANTIRISHNING TASHKIL ETISH SHAKLLARI

G'ofurova Mahfuza Abbosovna

Farg'ona davlat universiteti,(PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini funksional savodxonlik asosida professional rivojlantirishning tashkiliy shakllari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, reflektiv ta'lim nazariyasi hamda amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish konsepsiyalari metodologik asos sifatida olindi. Tahlillar natijasida professional rivojlantirishning samarali shakllari sifatida reflektiv seminarlar, amaliy laboratoriyalar, portfolio texnologiyasi, maktab bilan integratsiyalashgan klinik amaliyot va professional o'quv hamjamiyatlari aniqlashtirildi. Ushbu shakllarning o'zaro integratsiyasi bo'lajak o'qituvchilarda reflektiv fikrlash, metodik moslashuvchanlik va innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishi asoslab berildi. Tadqiqot natijalari boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash tizimini takomillashtirishda metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: funksional savodxonlik, professional rivojlantirish, bo'lajak o'qituvchi, boshlang'ich ta'lim, reflektiv o'qitish, portfolio, klinik amaliyot

ОРГАНИЗАЦИОННЫЕ ФОРМЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ФУНКЦИОНАЛЬНОЙ ГРАМОТНОСТИ

Гофурова Махфуза Аббосовна

Ферганский государственный университет, PhD

Аннотация

В данной статье научно обоснованы организационные формы профессионального развития будущих учителей начального образования на основе функциональной грамотности. В качестве методологической основы исследования использованы компетентностный подход, теория рефлексивного обучения и концепции практико-ориентированного образования. В результате анализа определены эффективные формы профессионального развития: рефлексивные семинары, практико-ориентированные лаборатории, портфолио-технология, клиническая педагогическая практика и профессиональные обучающиеся сообщества. Доказано, что интеграция данных форм способствует развитию рефлексивного мышления, методической гибкости и инновационной педагогической деятельности будущих учителей. Результаты исследования могут служить методической основой для совершенствования системы подготовки учителей начального образования.

Ключевые слова: функциональная грамотность, профессиональное развитие, будущий учитель, начальное образование, рефлексивное обучение, портфолио, клиническая практика.

ORGANIZATIONAL FORMS OF PROFESSIONAL DEVELOPMENT OF PROSPECTIVE PRIMARY EDUCATION TEACHERS BASED ON FUNCTIONAL LITERACY

Gofurova Mahfuza Abbosovna
Fergana State University, PhD

Abstract

This article provides a theoretical and methodological justification of organizational forms for the professional development of prospective primary school teachers based on functional literacy. The study is grounded in the competency-based approach, reflective teaching theory, and practice-oriented learning concepts. The findings identify effective forms of professional development, including reflective seminars, practice-based workshops, portfolio technology, school-integrated clinical practice, and professional learning communities. The integration of these forms is shown to enhance reflective thinking, methodological flexibility, and innovative pedagogical skills in future teachers. The results can serve as a methodological framework for improving primary teacher education systems.

Keywords: functional literacy, professional development, prospective teacher, primary education, reflective teaching, portfolio, clinical practice

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat fan mazmunini yetkazish, balki o'quvchilarda real hayotda qo'llaniladigan kompetensiyalarni shakllantirishni talab etadi. Oliy ta'lim muassasasida pedagogning ilg'or kasbiy tayyorgarligi to'g'risidagi konseptual ilmiy g'oya bayon etilgan, "pedagogning ilg'or kasbiy tayyorgarligi" tushunchasining mohiyati, pedagogik mazmuni, bunday tayyorgarlikning asosiy mazmuniy komponentlari va tamoyillari ochib berilgan. "O'qituvchining kasbiy madaniyati," "o'qituvchining kasbiy kompetentligi," "o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi," "o'qituvchining kasbiy salohiyati" kabi pedagogik tushunchalarning o'zaro bog'liqligi o'rganilgan bo'lib, ular ilg'or kasbiy pedagogning kasbiy tayyorgarligi yangi sifat xususiyatlariga ega bo'lmoqda. Eng muhim xususiyatlardan biri pedagogning ushbu tayyorgarligini uning faoliyatining yaqin va uzoq istiqbolini hisobga olgan holda oldinga yo'naltirishdir. Shu nuqtai nazardan, funksional savodxonlik tushunchasi ta'lim sifatini belgilovchi asosiy mezonlardan biriga aylandi [OECD, 2019]. Boshlang'ich ta'lim bosqichi esa shaxsning keyingi o'quv va ijtimoiy faoliyatiga poydevor bo'lib xizmat qilgani sababli, aynan shu bosqich o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi strategik ahamiyat kasb etadi [UNESCO, 2017]. Funksional savodxonlikka yo'naltirilgan pedagogik faoliyat o'qituvchidan reflektiv fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, fanlararo integratsiyani amalga oshirish hamda o'quvchini faol subyektga aylantirish ko'nikmalarini talab etadi [Schön, 1983]. Shuning uchun bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini professional rivojlantirish jarayonini an'anaviy ma'ruza-amaliyot modeli bilan cheklab bo'lmaydi; u zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilishi lozim [Darling-Hammond et al., 2017].

Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining professional rivojlanishini texnologik asosda tashkil etish esa ularning ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini tizimli yondashuv asosida takomillashtirishga, amaliyot bilan integratsiyalashgan holda o'zlashtirishga va individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat o'qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshiradi, balki boshlang'ich ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi [Shulman, 2015; Darling-Hammond, 2017]. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining professional rivojlanishini texnologik asosda yo'lga qo'yish masalasi pedagogika nazariyasi va amaliyotining muhim ilmiy-pedagogik muammosi sifatida alohida o'rganishni talab etadi. Ushbu maqolada mazkur jarayonning nazariy-metodologik asoslari, texnologik yondashuvlar, rivojlantiruvchi omillar hamda amaliy natijalar tahlil qilinadi. Ushbu tayyorgarlik talabaning kasbiy ahamiyatli sifatlarini rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan subyekt sifatida shakllanishiga, unga kasbiy faoliyat turlarini, pedagogning funksiyalari va rollarini to'laqonli bajarishi uchun zarur bo'lgan ichki resurslarni ochib berishga qaratilgan bilimlar, ko'nikmalar, kompetensiyalar, qadriyatli yo'nalishlar, xulq-atvor va pedagogik muloqot

me'yorlarini o'zlashtirish bo'yicha pedagogik jarayonni loyihalash va amalga oshirishni nazarda tutadi.

So'nggi yillarda bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining professional rivojlanishini ta'minlash masalasi xalqaro va mahalliy pedagogik tadqiqotlarda alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Ilmiy manbalarda bu jarayon uzluksiz ta'lim, reflektiv faoliyat, kompetensiyaviy yondashuv va texnologik integratsiya bilan uzviy bog'liqlikda talqin etiladi [Darling-Hammond, 2017; Day & Sachs, 2004]. Xalqaro tadqiqotchilar fikriga ko'ra, professional rivojlanish faqat ma'lum kurs yoki dasturda qatnashish emas, balki o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatini muntazam ravishda tahlil qilishi, yangi metodlar bilan boyitib borishi va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirishi bilan izohlanadi [Shulman, 2015]. M. Fullan (2020)ning ta'kidlashicha, o'qituvchining kasbiy o'sishi ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarga moslashish, innovatsion yechimlar topish va o'qituvchilarning ehtiyojlariga mos yondashuvlarni ishlab chiqish bilan chambarchas bog'liqdir.

OECD (2022) ma'lumotlariga ko'ra, XXI asrda ta'lim tizimining muvaffaqiyati o'qituvchilarning faqatgina bilim darajasiga emas, balki ularning funksional savodxonligi, kommunikativ kompetensiyasi, global tafakkuri va texnologik savodxonligiga ham bevosita bog'liq. Shu sababli, professional rivojlanish texnologiyalarini ishlab chiqish jarayonida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, reflektiv tahlil, hamkorlikda o'rganish, loyiha asosida ta'lim kabi innovatsion yondashuvlar muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi [Darling-Hammond, 2017; Shulman, 2015]. Mahalliy olimlar ham ushbu yo'nalishda qator ilmiy ishlarni amalga oshirganlar. Jumladan, [A. Xodjayev 2020] boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida amaliy faoliyat komponentining ahamiyatini ta'kidlagan bo'lsa, [S. Qodirova 2021] o'qituvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirishda reflektiv yondashuvning samaradorligini asoslab bergan. Bularning barchasi bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining professional rivojlanishini texnologik asosda tashkil etish masalasi nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb ekanini ko'rsatadi.

Mazkur tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy pedagogika fanida keng qo'llanilayotgan **kompetensiyaga asoslangan ta'lim yondashuvi, reflektiv pedagogika, konstruktivizm nazariyasi, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim** va **uzluksiz professional rivojlanish konsepsiyasi** tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini tizimli, maqsadli va bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi:

1. **Ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish.** Bunda funksional savodxonlik va o'qituvchilarni tayyorlashga oid xalqaro yondashuvlarni aniqlash [OECD, 2019; UNESCO, 2017]
2. **Komparativ tahlil.** Bunda rivojlangan ta'lim tizimlarida qo'llanilayotgan professional rivojlantirish shakllarini qiyoslash amalga oshiriladi.
3. **Modelashtirish.** Bunda bo'lajak o'qituvchilarni rivojlantirishning tashkiliy tizimini ishlab chiqiladi.
4. **Pedagogik sintez.** Bunda mavjud shakllarni funksional savodxonlik talablari bilan integratsiyalashtiriladi.

Metodologik asos sifatida kompetensiyaviy yondashuv, reflektiv ta'lim nazariyasi va amaliyotga yo'naltirilgan o'qitish konsepsiyalari olindi [Schön, 1983; Shulman, 1987]. Ushbu metodologik asoslar uyg'unligi natijasida professional rivojlanish texnologiyasi tizimli, samarali va barqaror tus oladi. quyidagi jadval orqali ko'rish mumkin

Tadqiqot metodologiyasida, shuningdek, sifatli va miqdoriy tahlil usullaridan foydalaniladi. Sifatli yondashuv orqali pedagoglarning professional rivojlanish jarayonidagi ehtiyojlari, motivatsiyasi va qiyinchiliklari o'rganiladi, miqdoriy tahlil esa anketalar, diagnostik testlar va baholash mezonlari asosida ularning kompetensiyalaridagi o'zgarishlarni aniqlash

imkonini beradi. Bu usullarni qo'llash natijasida professional rivojlantirish texnologiyalarining samaradorligi, ularning ta'sir kuchi va amaliy ahamiyati aniqlanadi.

1-jadval

№	Metodologik yondashuv	Asosiy mazmuni	Tadqiqotda qo'llanish usullari	Afzalliklari	Tadqiqotdagi ahamiyati
1	Kompetensiya ga asoslangan yondashuv	O'qituvchining bilim, ko'nikma, malaka va munosabatlarini tizimli rivojlantirishga yo'naltirilgan.	Kompetensiyalar ni aniqlash, modellashtirish, baholash mezonlarini ishlab chiqish.	Kasbiy tayyorgarlikni real ehtiyojlarga moslashtiradi.	Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy moslashuvchanlikni shakllantiradi.
2	Reflektiv-pedagogik yondashuv	O'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga asoslangan metod.	Reflektiv kundaliklar, portfoliolar, o'zini baholash anketalari.	Mustaqil tahlil va doimiy rivojlanish ehtiyojini kuchaytiradi.	Uzluksiz kasbiy o'sish jarayonini ta'minlaydi.
3	Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv	O'qituvchining shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va maqsadlarini inobatga oladi.	Individual ta'lim yo'llari, mentorlik, kouching texnologiyalari.	Kasbiy motivatsiya va ijtimoiy faollikni oshiradi.	O'qituvchining shaxsiy va kasbiy identitetini rivojlantiradi.
4	Innovatsion texnologik yondashuv	Zamonaviy raqamli, interaktiv va loyihaviy metodlar asosida rivojlantirish.	AKT vositalari, onlayn platformalar, loyiha asosli o'qitish.	XXI asr ko'nikmalarini shakllantiradi.	Raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining professional rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishda bir nechta metodologik yondashuvlar uyg'un qo'llanilishi zarur. **Kompetensiyaga asoslangan yondashuv** kasbiy tayyorgarlikning mazmuniy asosini belgilab bersa, **reflektiv-pedagogik yondashuv** bu jarayonning ichki tahlil va o'zini rivojlantirish mexanizmini yaratadi. **Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv** esa har bir talabaning individualligini e'tiborga olib, ta'lim jarayonini motivatsion jihatdan boyitadi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan professional tayyorgarlik quyidagi **tashkiliy shakllar** orqali samarali amalga oshiriladi:

1. Reflektiv seminarlar tashkil etish. Reflektiv seminarlar talabalarining o'z pedagogik tajribasini tahlil qilish, o'quv vaziyatlarini baholash va muammoli holatlar bo'yicha qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bu shakl reflektiv o'qitish nazariyasiga asoslanadi [Schön, 1983]. Seminarlar jarayonida real dars videolari, case-studylar va muammoli vaziyatlar muhokama qilinadi.
2. Amaliy laboratoriyalar tashkil etish. Bu shakl nazariy bilimlarni real pedagogik vaziyatlar bilan bog'lash imkonini beradi. Talabalar dars loyihalari, integrativ topshiriqlar va hayotiy

vaziyatlarga asoslangan mashg'ulotlarni ishlab chiqadilar. Bu jarayon pedagogik mazmuniy bilimni (PCK) rivojlantirishga xizmat qiladi [Shulman, 1987].

3. Portfoliyo asosida rivojlantirish. Portfolio texnologiyasi talabning individual professional o'sishini monitoring qilishga imkon beradi. Unda dars ishlanmalari, reflektiv esse, kuzatuv natijalari va metodik ishlanmalar jamlanadi. Bu yondashuv o'z-o'zini baholash va o'zini rivojlantirish kompetensiyalarini mustahkamlaydi [Darling-Hammond et al., 2017].

Aniqlangan tashkiliy shakllar o'zaro integratsiyalashgan holda qo'llangandagina yuqori samaradorlik beradi. Masalan, reflektiv seminarlar amaliy laboratoriyalar bilan uyg'unlashganda nazariy tahlil va amaliy qo'llash bir-birini to'ldiradi. Portfolio esa ushbu jarayonlarning natijalarini tizimlashtiradi. Xalqaro tajribalar ham o'qituvchi tayyorlashda amaliyotga yo'naltirilgan, reflektiv va hamkorlikka asoslangan shakllarning ustuvorligini ko'rsatadi [Darling-Hammond et al., 2017]. Shuningdek, funksional savodxonlikni rivojlantirish faqat metodik tayyorgarlik bilan emas, balki pedagogik tafakkur madaniyati bilan ham bog'liq [OECD, 2019]. Shu bois professional rivojlantirish jarayoni uzluksiz, ko'p bosqichli va shaxsga yo'naltirilgan tizim sifatida tashkil etilishi zarur. Tadqiqot doirasida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining professional rivojlanish darajasi, mavjud holatdagi ehtiyojlari va ta'lim jarayonidagi texnologik yondashuvlar tahlil qilindi. Dastlabki bosqichda olib borilgan diagnostik tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, talabalarning 62 foizi kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan metodik kompetensiyalarga ega emas, 48 foizi esa zamonaviy ta'lim texnologiyalarini amaliyotga qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Bu holat mavjud tayyorlov jarayonida professional rivojlanishni tizimli asosda tashkil etish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi [OECD, 2022]. Natijalar shuningdek, professional rivojlanish jarayonida **hamkorlikda o'rganish, refleksiya, amaliy faoliyat bilan integratsiya** kabi metodik yondashuvlar eng samarali ekanligini ko'rsatdi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining professional rivojlanishini samarali tashkil etish uchun texnologik yondashuvlar, reflektiv pedagogika, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va amaliy faoliyat integratsiyasi kompleks tarzda qo'llanishi zarur.

Funksional savodxonlik asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini professional rivojlantirish tashkiliy shakllar majmuasi orqali samarali ta'minlanadi. Ularga reflektiv seminarlar, amaliy laboratoriyalar, portfolio asosida rivojlantirish, klinik amaliyot hamda professional o'quv hamjamiyatlari kiradi. Bu shakllar o'qituvchining reflektiv, metodik va innovatsion kompetensiyalarini kompleks rivojlantirib, boshlang'ich ta'limda funksional savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu texnologiyani ta'lim jarayoniga keng joriy etish boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, global kompetensiyalarga ega raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlash va jamiyatning intellektual salohiyatini yuksaltirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Darling-Hammond L. The right to learn: A blueprint for creating schools that work. – San Francisco: Jossey-Bass, 2017. – 336 p.
2. Day C., Sachs J. International handbook on the continuing professional development of teachers. – Maidenhead: Open University Press, 2004. – 512 p.
3. Fullan M. The new meaning of educational change. – 5th ed. – New York: Teachers College Press, 2020. – 256 p.
4. OECD. Teaching for the future: Global competence in education. – Paris: OECD Publishing, 2022. – 180 p.
5. Shulman L. S. The wisdom of practice: Essays on teaching, learning, and learning to teach. – San Francisco: Jossey-Bass, 2015. – 608 p.
6. Qodirova S. Reflektiv yondashuv asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kompetensiyalarini rivojlantirish // Pedagogika jurnali. – 2021. – № 3(2). – B. 45–52.

7. OECD. PISA 2018 results. Volume I: What students know and can do. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 352 p.
8. Schön D. A. The reflective practitioner: How professionals think in action. – New York: Basic Books, 1983. – 374 p.
9. Shulman L. S. Knowledge and teaching: Foundations of the new reform // Harvard Educational Review. – 1987. – Vol. 57, № 1. – P. 1–22.
10. UNESCO. Education for sustainable development goals: Learning objectives. – Paris: UNESCO Publishing, 2017. – 63 p.
11. Vygotsky L. S. Mind in society: The development of higher psychological processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.